



**JAHON SAVDO TASHKILOTINING TARIFLAR VA SAVDO
BO‘YICHA BOSH BITIMI VA SAVDO BILAN BOG‘LIQ
INVESTITSIYA CHORALARI TO‘G‘RISIDAGI BITIMI
NORMALARINI QO‘LLASH BO‘YICHA**

NAZARIY-METODOLOGIK QO‘LLANMA

Jahon savdo tashkilotining Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitimi va Savdo bilan bog'liq investitsiya choralari to'g'risidagi bitimi normalarini qo'llash bo'yicha nazariy-metodologik qo'llanma. T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2026-yil. –15 bet.

Mazkur qo'llanma vazirlik va idoralar xodimlariga Jahon savdo tashkilotining Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitimi va Savdo bilan bog'liq investitsiya choralari to'g'risidagi bitimi normalarining mohiyatini sodda tilda tushuntirish, ularni normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va huquqiy ekspertizadan o'tkazish jarayonida qo'llash bo'yicha amaliy ko'rsatma berish maqsadida tayyorlandi.

Ushbu nazariy-metodologik qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2026-yil.

Mundarija

Kirish.....	4
I bob. GATT 1994 va TRIMs bitimining JST tizimidagi o‘rni.....	5
II bob. GATT 1994ning asosiy qoidalari.....	6
III bob. TRIMs bitimi: savdo bilan bog‘liq investitsiya choralari.....	9
IV bob. Davlat organlari uchun JST-muvofiqlik metodologiyasi.....	10
V bob. Amaliy holatlar va tahlil namunalari.....	11
Ilova 1. Normativ-huquqiy hujjat loyihasi uchun JST check-list.....	13
Ilova 2. “Qizil bayroq” iboralari.....	13
Ilova 3. Tavsiya etiladigan muqobil tahrir usullari.....	13
Ilova 4. Qisqa eslatma: GATT va TRIMs o‘rtasidagi bog‘liqlik.....	14
Foydalanilgan asosiy manbalar.....	14

KIRISH

Jahon savdo tashkiloti (keyingi o'rinlarda – JST) davlatlar o'rtasidagi savdoni tartibga solish bilan shug'ullanuvchi nufuzli xalqaro tashkilot hisoblanadi. Hozirgi kunda JSTga a'zo davlatlar soni **166 tani** tashkil etib, dunyo savdosining **98 foizi** ushbu davlatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

JSTni tashkil etish to'g'risidagi Marokash bitimining XVI moddasining 4-bandiga ko'ra, har bir a'zo davlat o'zining qonunlari, normativ hujjatlari va ma'muriy tartib-taomillarining JST bitimlariga muvofiqligini ta'minlashi lozim. Bunda milliy normativ-huquqiy bazani JST bitimlariga muvofiqlashtirish asosiy o'rin tutadi. Shu asosda O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lishi doirasida milliy qonunchilikni tashkilot bitimlariga muvofiqlashtirish a'zolikning zaruriy sharti hisoblanadi. O'z navbatida, qonunchilikni uyg'unlashtirish jarayonida JST doirasida taqiqlangan choralarni bekor qilish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-iyundagi PQ-181-son qaroriga muvofiq O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha asosiy vazifa va yo'nalishlar belgilab berildi. Mazkur qarorga asosan JST bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiyaning yangilangan tarkibi tasdiqlandi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining JST masalalari bo'yicha maxsus vakili lavozimi joriy qilindi hamda Adliya vazirligiga milliy qonunchilikni JST bitimlariga uyg'unlashtirish funksiyasi yuklatildi.

Shuningdek, ushbu qarorga asosan bir qator **vazirlik va idoralarda JST masalalari bo'yicha bo'linmalar** tashkil etildi.

Bugungi kunda milliy qonunchilikni JST qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirish maqsadida Adliya vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda milliy qonunchilikni JST qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirish bo'yicha ish rejasi ishlab chiqilgan va bu borada tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

JST bitimlaridagi normalar mazmun va mohiyat jihatdan ancha murakkab hisoblanadi. Ularga amal qilmagan holda normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish yoki JST qoidalarining buzilishiga sabab bo'luvchi bevosita yoxud bilvosita normalarni joriy etish mazkur tartibni buzgan a'zo davlatga nisbatan JST doirasida ta'sir choralari qo'llanilishiga sabab bo'lishi mumkin. Hozirda O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish jarayonida bo'lib, JST bitimlariga zid normalarni o'z ichiga olgan har bir normativ-huquqiy hujjat a'zolik jarayonini kechiktirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-iyundagi PQ-181-son qaroriga asosan 2023-yil 1-iyuldan boshlab **JST qoida va me'yorlariga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish taqiqlanishi** belgilandi.

Biroq, bugungi kunda JST bitimlari murakkab yuridik tilda yozilgani bois mas'ul vazirlik va idoralar xodimlari tomonidan bitim normalarini noto'g'ri talqin qilish hollari uchramoqda.

Mazkur qo'llanma davlat organlari xodimlarining JST bitimlari mohiyati, ularni norma ijodkorligi jarayonida samarali qo'llash hamda ekspertiza jarayonida aniqlanayotgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishda boshlang'ich nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Asosiy metodologik yondashuv

JSTga muvofiqlikni baholash faqat modda matnini o'qish bilan cheklanmaydi. Choraning amaldagi ta'siri, import va mahalliy tovarlar o'rtasidagi raqobat sharoiti, ruxsatnomalar va imtiyozlar orqali yuzaga keladigan bilvosita cheklovlar ham baholanishi kerak.

I bob. GATT 1994 va TRIMs bitimining JST tizimidagi o'rni

1.1. GATT 1994ning mazmuni

JSTning **Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitimi** (GATT) JSTning tovarlar savdosi bo'yicha asosiy bitimi hisoblanadi. U import va eksport jarayonida qo'llaniladigan tariflar, ichki soliqlar, bojxona rasmiyatchiliklari, tranzit, miqdoriy cheklovlar, diskriminatsiyani taqiqlash va istisnalar bo'yicha umumiy huquqiy asoslarni belgilaydi.

GATTning markaziy g'oyasi shundan iboratki, davlat savdo siyosatini yuritishi mumkin, biroq bu siyosat shaffof, oldindan taxmin qilinadigan va boshqa a'zolar tovarlarini asossiz kamsitmaydigan bo'lishi kerak.

1.2. TRIMs bitimining mazmuni


JSTning Savdo bilan bog'liq investitsiya choralari to'g'risidagi bitimi (TRIMs) barcha investitsiya munosabatlarini emas, balki faqat tovarlar savdosiga ta'sir ko'rsatadigan investitsiya choralari qamrab oladi. Uning asosiy vazifasi investor faoliyatiga qo'yiladigan ayrim shartlar orqali import tovarlari kamsitilishi yoki import/eksport hajmi cheklanishining oldini olishdan iborat.

TRIMs bitimi GATTning III-moddasi 4-bandi va XI-moddasi 1-bandi bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, TRIMs tahlili alohida emas, balki milliy rejim va miqdoriy cheklovlar taqiqi bilan birga olib boriladi.

Muhim farq

TRIMs investorga nisbatan qo'yilgan shart kimga — mahalliy yoki xorijiy investorga — tatbiq etilishidan qat'i nazar qo'llanishi mumkin. Muhim masala investorning import qilingan tovarlardan foydalanish imkoniyati cheklanayotgani yoki mahalliy tovarlarga ustunlik berilayotganidir.

GATT 1994 va TRIMs bitimini amaliy qo'llash xaritasi



1-rasm. GATT 1994 va TRIMs bitimini amaliy qo'llash xaritasi.

II bob. GATT 1994ning asosiy qoidalari

2.1. GATT I-modda: eng qulay rejim tamoyili

GATT I-moddasi “Eng qulay rejim” (MFN) tamoyilini belgilaydi. Unga ko‘ra, mahsulotlar importi yoki eksporti bilan bog‘liq holda bir davlat tovarlariga berilgan afzallik, imtiyoz, preferensiya yoki yengillik JSTning boshqa a‘zolari o‘xshash tovarlariga ham darhol va shartsiz tatbiq etilishi kerak.

Tekshiruv savoli	Nimaga e‘tibor beriladi?	Xavf belgisi
Imtiyoz faqat ayrim davlat tovarlariga berilyaptimi?	Boj, yig‘im, rasmiyatchilik, sertifikatlash yoki import tartibi bo‘yicha farq	MFN buzilishi xavfi
Afzallik hujjatda neytral, lekin amalda faqat ayrim davlatlarga foyda beradimi?	De facto diskriminatsiya holatlari	Yuqori xavf
Imtiyoz erkin savdo bitimi yoki preferensial rejim doirasidami?	GATT XXIV, rivojlanayotgan davlatlarga preferensiyalar yoki boshqa tan olingan istisnolar	Asoslantirish talab etiladi

Amaliy eslatma

“Eng qulay rejim” (MFN) tamoyili faqat JST a‘zolariga emas, amalda JSTga a‘zo bo‘lmagan davlatga berilgan imtiyozlar orqali ham ishga tushishi mumkin: bunday afzallik JST a‘zolariga ham tatbiq etilishi talab qilinadi.

2.2. GATT II-modda: tarif majburiyatlari

GATT II-moddasi a'zo davlatlarning tarif jadvalida ko'rsatilgan bojxona boji stavkalari va majburiyatlariga rioya qilishini talab qiladi. JSTga a'zo bo'lgan davlat odatda o'z tarif jadvalida bog'langan stavkadan yuqori boj qo'llay olmaydi.

Norma ijodkorligi jarayonida har qanday yangi bojxona boji, qo'shimcha yig'im yoki fiskal to'lov tarif majburiyatlari bilan solishtirilishi zarur. Bojxona chegarasida olinadigan xizmat haqlari real ko'rsatilgan xizmat qiymatidan oshib ketmasligi lozim.

Muhim eslatma

Bugungi kunda O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi doirasida tarif majburiyatlari yuzasidan muzokaralar davom etayotgan bir paytda, tegishli mahsulotlarga nisbatan bojxona boji stavkalarini oshirish masalasi JST masalalari bo'yicha idoralararo komissiya hamda Prezidentning JST bo'yicha vakili bilan kelishilishi lozim.

2.3. GATT III-modda: milliy rejim tamoyili

GATT III-moddasi import qilingan tovarlar ichki bozorga kimgach, mahalliy tovarlarga nisbatan kamroq qulay sharoitga qo'yilmasligini ta'minlaydi. Bu qoida ichki soliqlar, yig'imlar, qonunlar, qoidalar, talablar, sotish, xarid qilish, tashish, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq tartiblarga nisbatan qo'llanadi.

Qamrov	Misol	Baholash mezonlari
Ichki soliq va yig'imlar	Import mahsulotiga mahalliy mahsulotga nisbatan yuqoriroq aksiz yoki ro'yxatdan o'tkazish to'lovi	"Ortiqcha soliq yuki" mavjudmi?
Ichki talablar	Import mahsuloti faqat alohida do'konlarda sotilishi mumkinligi	Raqobat sharoiti yomonlashadimi?
Mahalliy kontent	Mahsulot tarkibida kamida ma'lum foiz mahalliy xomashyo bo'lishi sharti	Mahalliy mahsulotga ustunlik bormi?
Davlat xaridi istisnosi	Davlat ehtiyoji uchun tovar sotib olish	Tijorat maqsadida qayta sotish mavjud emasmi?

De jure va de facto tahlil

Hujjat matnida "import" so'zi ishlatilmagan bo'lsa ham, chora amalda import tovarlariga ko'proq salbiy ta'sir qilsa, milliy rejim bo'yicha xavf yuzaga kelishi mumkin.

2.4. GATT V-modda: tranzit erkinligi

GATT V-moddasi tovarlarning tranzit orqali o'tishiga nisbatan asossiz kechiktirish, ortiqcha to'lov, kamsituvchi talab yoki keraksiz rasmiyatchiliklar qo'llanmasligini nazarda tutadi. Tranzit masalalarida davlat xavfsizligi, bojxona nazorati va sanitariya talablari bo'lishi mumkin, biroq ular zarur va mutanosib bo'lishi kerak.

2.5. GATT VIII-modda: import va eksport bilan bog'liq yig'img'lar

GATT VIII-moddasi import va eksport bilan bog'liq to'lovlar va rasmiyatchiliklarni tartibga soladi. Bunday to'lovlar fiskal daromad manbai yoki yashirin proteksionistik choraga aylanmasligi, ko'rsatilgan xizmatning taxminiy qiymatiga mos bo'lishi kerak.

Amaliy savol

Agar loyiha import yoki eksport uchun yangi yig'im joriy qilsa, uning miqdori qanday hisoblangan? U xizmat qiymatiga asoslanganmi yoki budget daromadini oshirish maqsadini ko'zlayaptimi?

2.6. GATT XI-modda: miqdoriy cheklovlarni umumiy bartaraf etish

GATT XI-moddasi import yoki eksportga boj, soliq va boshqa to'lovlardan tashqari taqiq yoki cheklovlar qo'llashni umumiy qoida sifatida taqiqalaydi. Bunday cheklovlarga kvota, import yoki eksportni litsenziyalash, taqiqlar, ruxsatnomalar va savdo hajmini amalda cheklaydigan boshqa choralar kiradi.

Miqdoriy cheklovlar tariflardan farqli ravishda savdo hajmiga bevosita "taqiq yoki cheklov" qo'yadi. Tovar narx bo'yicha raqobatbardosh bo'lsa ham, kvota yoki ruxsatnoma cheklovi sababli bozorga kira olmasligi mumkin.

Chora turi	GATT XI bo'yicha xavf	Izoh
Import kvotasi	Qizil	Import hajmini bevosita cheklaydi
Eksport taqiqi	Qizil	Ayrim vaqtinchalik istisnolar bo'lishi mumkin, lekin qat'iy asos talab etiladi
Avtomatik bo'lmagan litsenziya	Sariq/qizil	Agar ruxsat berish mezonlari noaniq yoki hajmni cheklasa, yuqori xavf
Avtomatik ro'yxatga olish	Yashil/sariq	Agar faqat statistik va shaffof bo'lsa, xavf pastroq.
Importni eksport majburiyatiga bog'lash	Qizil	TRIMs va GATT XI bo'yicha xavf

2.7. GATT XIII-modda: miqdoriy cheklovlarni kamsitmasdan qo'llash

Agar GATT yoki boshqa JST bitimlari doirasida istisno tariqasida miqdoriy cheklov qo'llashga yo'l qo'yilsa, bunday cheklov a'zolar o'rtasida diskriminatsiyasiz taqsimlanishi kerak. Bu qoida ayniqsa kvota, tarif kvotasi va taqsimlash mexanizmlarida muhim ahamiyatga ega.

2.8. GATT XX-modda: umumiy istisnolar

GATT XX-moddasi ayrim qonuniy maqsadlar uchun savdoga ta'sir qiluvchi choralarni oqlash imkonini beradi. Masalan, inson, hayvon yoki o'simlik hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, jamoat axloqi, tugaydigan tabiiy resurslarni asrash kabi maqsadlar ko'rsatilgan.

Biroq istisnoga tayanish uchun ikki bosqichli tahlil talab etiladi: birinchidan, chora XX-moddadagi aniq bandlardan biriga mos kelishi; ikkinchidan, chora asossiz yoki o'zboshimchalik bilan diskriminatsiya qilmasligi va xalqaro savdoni yashirin cheklash vositasi bo'lmash kerak.

Istisno avtomatik ruxsat emas

Qonuniy maqsad mavjudligi choraning JSTga muvofiqligini o'z-o'zidan ta'minlamaydi. Chora zarur, mutanosib, shaffof, vaqt va hajm bo'yicha asoslangan hamda kamroq cheklovchi muqobillar bilan solishtirilgan bo'lishi kerak.

III bob. TRIMs bitimi: savdo bilan bog'liq investitsiya choralari

3.1. TRIMs bitimining amal qilish doirasi

TRIMs bitimi faqat tovarlar savdosi bilan bog'liq investitsiya choralari nisbatan tatbiq etiladi. Bitimning o'zida "savdo bilan bog'liq investitsiya chorasi" atamasiga batafsil ta'rif berilmagan bo'lsa-da, unga ilova qilingan namunaviy ro'yxat GATT III:4 va XI:1 normalariga zid keluvchi choralarning asosiy turlarini ko'rsatadi.

3.2. GATT III:4ga zid TRIMs choralari

Chora	Mazmuni	Nega xavfli?
Mahalliy kontent talabi	Investor yoki korxona mahalliy mahsulot, xomashyo yoki komponentlardan foydalanishi shart	Import mahsulotlari mahalliy mahsulotlarga nisbatan kamroq qulay sharoitga qo'yiladi
Afzallik olish uchun mahalliy xarid sharti	Imtiyoz, subsidiya, litsenziya yoki ruxsat mahalliy mahsulotdan foydalanishga bog'lanadi	Talab "majburiy" bo'lmasa ham, afzallik olish sharti sifatida TRIMs xavfini keltirib chiqaradi
Savdo balanslash talabi	Import qilinadigan mahsulot hajmi yoki qiymati eksport hajmi yoki qiymati bilan bog'lanadi	Importdan foydalanish imkoniyati eksport natijasiga bog'lanadi

3.3. GATT XI:1ga zid TRIMs choralari


Chora	Mazmuni	Tahlil
Importni eksport hajmiga bog'lash	Korxona eksport qilgan hajmiga mutanosib ravishda import qila oladi	Import huquqi miqdoriy tarzda cheklanadi
Valyuta tushumiga bog'langan import	Import uchun chet el valyutasidan foydalanish korxonaning valyuta tushumlari bilan cheklanadi	Import imkoniyati moliyaviy/valyuta mexanizmi orqali cheklanadi
Eksport yoki eksportga sotishni cheklash	Investor mahsulotning ma'lum qismini mahalliy bozorda sotishi shart	Eksport hajmi yoki eksportga sotish imkoniyati cheklanadi

TRIMs bo'yicha asosiy xulosa

Davlat investitsiyani rag'batlantirishi mumkin, lekin imtiyoz yoki ruxsatni mahalliy mahsulotdan foydalanish, importni eksport bilan muvozanatlash, import hajmini cheklash yoki eksportga sotishni cheklash sharti bilan bog'lashi mumkin emas.

IV bob. Davlat organlari uchun JST-muvofiqlik metodologiyasi

Normativ-huquqiy hujjat loyihasi uchun JST-muvofiqlik algoritmi



2-rasm. Normativ-huquqiy hujjat loyihasi uchun JST-muvofiqlik algoritmi.

4.1. Birinchi bosqich: chorani tasniflash

Loyiha matnida ko'zda tutilgan har bir chora alohida aniqlanadi. Bitta qaror loyihasida bir vaqtning o'zida bojxona to'lovi, litsenziya, subsidiya, soliq imtiyozi va investitsiya sharti bo'lishi mumkin. Har bir chora bo'yicha alohida JST tahlili o'tkaziladi.

Chora turi	Tekshiriladigan asosiy modda	Izoh
Bojxona boji	GATT II	Tarif jadvali va bog'langan stavka bilan solishtiriladi (<i>mazkur jarayon loyihani JST masalalari bo'yicha idoralararo komissiya hamda Prezidentning JST bo'yicha vakili bilan kelishish jarayonida aniqlanadi</i>)
Ichki soliq/yig'im	GATT III	Import va mahalliy tovarlar uchun tenglik tekshiriladi
Import/eksport litsenziyasi	GATT XI, JSTning Importni litsenziyalash to'g'risidagi bitimi	Litsenziya savdo hajmini cheklayaptimi?
Investitsiya sharti	TRIMs + GATT III/XI	Mahalliy kontent yoki savdo balanslash bormi?
Davlat xaridi	GATT III:8 istisnosi	Davlat ehtiyoji va tijorat maqsadi farqlanadi
Texnik talab	GATT III, TBT/SPS bitimlari	Tovar xavfsizligi va standartlarga bog'liq chora

4.2. Ikkinchi bosqich: ta'sirni baholash


Norma faqat matn bo'yicha emas, amaliy ta'siri bo'yicha ham baholanadi. Masalan, "barcha ishlab chiqaruvchilar"ga tatbiq etiladigan mahalliy kontent talabi mahalliy va xorijiy investorlarni farqlamasligi mumkin, lekin import qilingan komponentlardan foydalanish imkoniyatini cheklagani sababli TRIMs bo'yicha xavf tug'diradi.

4.3. Uchinchi bosqich: xavf darajasini belgilash

Xavf darajasi	Belgilar	Tavsiya
Yashil	Chora barcha tovarlarga teng qo'llanadi; savdoni cheklamaydi; shaffof va protsessual	Loyiha davom ettirilishi mumkin, asoslantirish saqlanadi
Sariq	Import yoki eksportga bilvosita ta'sir bo'lishi mumkin; istisno yoki qo'shimcha asos kerak	Tahrir, maqsad va muqobil choralar bo'yicha izoh tayyorlanadi
Qizil	Mahalliy kontent, diskriminatsion imtiyoz, kvota, taqiq yoki importni eksportga bog'lash mavjud	Norma qayta ishlab chiqiladi yoki bekor qilinadi

4.4. Ekspertiza jarayoni

Loyiha ekspertizasida tavsiya etiladigan ish jarayoni



3-rasm. Loyiha ekspertizasida tavsiya etiladigan ish jarayoni.

V bob. Amaliy holatlar va tahlil namunalari

5.1. Mahalliy kontent sharti

Holat

Loyiha bo'yicha sanoat korxonasiga soliq imtiyozi beriladi, biroq imtiyozdan foydalanish uchun ishlab chiqarishda kamida 40 foiz mahalliy xomashyo yoki butlovchi qismlardan foydalanish talab etiladi.

Tahlil: ushbu shart import qilingan xomashyo va komponentlardan foydalanishni mahalliy mahsulotlarga nisbatan kamroq qulay sharoitga qo'yadi. Talab imtiyoz olish sharti sifatida belgilangan bo'lsa ham, TRIMs bitimi bo'yicha xavf saqlanadi. Muqobil sifatida texnologik modernizatsiya, energiya samaradorligi, ekologik standart yoki xodimlar malakasini oshirish kabi tovar kelib chiqishiga bog'liq bo'lmagan mezonlardan foydalanish mumkin.

5.2. Eksport taqiqi yoki vaqtinchalik cheklovi

Holat

Ichki bozorda narx barqarorligini saqlash maqsadida ayrim oziq-ovqat mahsulotlari eksportiga vaqtinchalik taqiq qo'yish taklif qilinmoqda.

Tahlil: eksport taqiqi GATT XI-moddasi bo'yicha miqdoriy cheklov sifatida baholanadi. Ayrim favqulodda vaziyatlarda oziq-ovqat yoki boshqa zarur tovarlarning keskin tanqisligini oldini olish uchun vaqtinchalik cheklovlar asoslanishi mumkin. Biroq chora vaqtinchalik, aniq dalillarga asoslangan, mutanosib va shaffof bo'lishi kerak. Narxni boshqarishning kamroq cheklovchi muqobillari ham ko'rib chiqilishi zarur.

5.3. Import mahsulotiga alohida ro'yxatdan o'tkazish to'lovi

Holat

Import qilinadigan mahsulotlar uchun ro'yxatdan o'tkazish to'lovi mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarga nisbatan yuqoriroq belgilanadi.

Tahlil: agar to'lov ichki bozorda mahsulotni sotish yoki undan foydalanish bilan bog'liq bo'lsa, GATT III-moddasi bo'yicha milliy rejim masalasi yuzaga keladi. To'lovning farqlanishi real xizmat xarajatlari bilan asoslanmasa, import tovariga kamroq qulay sharoit yaratadi. Muqobil sifatida barcha mahsulotlar uchun bir xil, xarajatga asoslangan va shaffof to'lov joriy qilinishi lozim.

5.4. Investorga eksport majburiyati

Holat

Investorga yer, infratuzilma yoki soliq imtiyozi beriladi, biroq u ishlab chiqarilgan mahsulotning kamida 70 foizini eksport qilishi kerak.

Tahlil: TRIMs bitimi eksport samaradorligi talablarini har doim ham mustaqil ravishda qamrab olmaydi, lekin bunday shart subsidiya, eksportni rag'batlantirish va boshqa JST bitimlari bo'yicha alohida xavf tug'dirishi mumkin. Agar talab import huquqi, valyuta resurslari yoki mahalliy bozorda sotish cheklovi bilan bog'lansa, TRIMs va GATT XI bo'yicha ham muammo yuzaga keladi.

Ilova 1. Normativ-huquqiy hujjat loyihasi uchun JST check-list

Nº	Savol	Ha/Yo'q	Izoh
1.	Chora tovarlar importi yoki eksportiga ta'sir qiladimi?		
2.	Chora import tovarlariga mahalliy tovarlarga nisbatan yuqoriroq soliq, yig'im yoki talab qo'yadimi?		
3.	Chora ayrim davlatlar tovarlariga boshqa davlatlar tovarlariga nisbatan imtiyoz yoki cheklov beradimi?		

4.	Chora import yoki eksport hajmini kvota, taqiq, ruxsatnoma yoki litsenziya orqali cheklaydimi?		
5.	Imtiyoz mahalliy mahsulot, xomashyo yoki komponentdan foydalanish sharti bilan bog'langanmi?		
6.	Import qilish huquqi eksport hajmi, valyuta tushumi yoki mahalliy ishlab chiqarish hajmi bilan bog'langanmi?		
7.	Chora qonuniy maqsadga qaratilgan bo'lsa, u zarur va mutanosib ekanligi asoslanganmi?		
8.	Kamroq savdoni cheklovchi muqobil mexanizm ko'rib chiqilganmi?		

Ilova 2. “Qizil bayroq” iboralari

Quyidagi iboralar loyiha matnida uchrasa, ularni GATT va TRIMs nuqtayi nazaridan alohida tekshirish tavsiya etiladi:

- *“faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun”;*
- *“mahalliy mahsulotlardan foydalanish sharti bilan”;*
- *“kamida ... foiz mahalliy lashtirish darajasi”;*
- *“import qilish huquqi eksport majburiyatini bajarishga bog'liq”;*
- *“eksport hajmiga mutanosib import qilish”;*
- *“chet el mahsulotlarini xarid qilish taqiqlanadi”;*
- *“mahalliy xomashyoni xarid qilish majburiyati”;*
- *“faqat O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar”.*

Ilova 3. Tavsiya etiladigan muqobil tahrir usullari

Xavfli yondashuv	JSTga mosroq muqobil
Imtiyozni mahalliy kontent foiziga bog'lash	Imtiyozni energiya samaradorligi, ekologik ko'rsatkich, texnologik yangilanish yoki xodimlar malakasi kabi kelib chiqishga bog'liq bo'lmagan mezonlarga bog'lash
Import hajmini eksport hajmiga bog'lash	Importni umumiy bojxona va texnik talablar asosida shaffof tartibga solish
Import mahsulotiga yuqoriroq ro'yxatdan o'tkazish to'lovi	Barcha mahsulotlar uchun xizmat qiymatiga asoslangan yagona to'lov belgilash
Eksport taqiqi	Zarur bo'lsa, vaqtinchalik, aniq dalillarga asoslangan va kamroq cheklovchi choralarni tanlash
Ayrim davlat tovarlariga alohida imtiyoz	Imtiyozni barcha JST a'zolari o'xshash tovarlariga teng tatbiq etish yoki tan olingan istisnoga asoslash

Ilova 4. Qisqa eslatma: GATT va TRIMs o'rtasidagi bog'liqlik

Savol	GATT bo'yicha javob	TRIMs bo'yicha ahamiyati
Import tovari ichki bozorda kamsitilyaptimi?	GATT III-modda qo'llanadi	Mahalliy kontent yoki mahalliy xarid sharti TRIMs xavfini keltirib chiqaradi
Import yoki eksport hajmi cheklanyaptimi?	GATT XI-modda qo'llanadi	Importni eksportga yoki valyuta tushumiga bog'lash TRIMs xavfini keltirib chiqaradi
Bir davlat tovariga alohida imtiyoz bormi?	GATT I-modda qo'llanadi	TRIMs emas, lekin umumiy JST muvofiqligi uchun muhim
Chora qonuniy maqsadga qaratilganmi?	GATT XX istisnolari tekshiriladi	TRIMsda GATT istisnolari tegishli holatda qo'llanishi mumkin

Foydalanilgan asosiy manbalar

Jahon savdo tashkilotini tashkil etish to'g'risidagi Marokash bitimi.

General Agreement on Tariffs and Trade 1994 (GATT 1994).

Agreement on Trade-Related Investment Measures (TRIMs Agreement).

WTO Analytical Index: GATT 1994 va TRIMs Agreement bo'yicha izohlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-iyundagi PQ-181-son qarori.